



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: SAFAROV BOBIR SABIRJANOVICH

Sana: 23-01-2024 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 138773

Obyekt nomi «Jizzax viloyati Sh.Rashdov tumani "Oqtoshota" MFY hududida "Yangi O'zbekiston" massivida 200 qatnovli OP qurish»

Buyurtmachi - Jizzax viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" Injinerining kompaniyasi.

Bosh loyihachi - "QISHLOQQURILISHLOYIHA" MChJ

Litsenziya AL-001087. O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi 29-06-2020 yil.

Moliyalashtirish manbai - Davlat mablag'lari.

Bosh pudratchi - Tender tanlovi asosida.

Qurilish turi Yangi qurilish.

Murojaat raqami: № 128167

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-sentyabrdagi 83/51-sonli Rayosat bayoni.

1.2. Jizzax viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Jizzax viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, Sh.Rashidov tuman hokimligi, Jizzax viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" Injinerining kompaniyasi bilan kelishilgan, Jizzax viloyati hokimligi tomonidan 25.09.2023-yilda tasdiqlangan "Loyiha topshirig'i".

1.3. Jizzax viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 29.09.2023 - yilda tasdiqlangan 1708-1708212-94072 sonli "Arxitektura - rejalash topshirig'i".

1.4. "Jizzax viloyati Sh.Rashdov tumani "Oqtoshota" MFY hududida "Yangi O'zbekiston" massivida 200 qatnovli OP qurish" obyekti bo'yicha "O'ZGASHKLITI" Jizzax viloyati filiali tomonidan bajarilgan - Qurilish maydonining muhandislikgeologik tadqiqotlari natijalari to'g'risidagi xulosa.

1.5. Buyurtmachi tashkilot Jizzax viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" Injinerining kompaniyasi va loyiha tashkiloti "QISHLOQQURILISHLOYIHA" MChJ o'rtasida loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun 16.10.2023-yilda tuzilgan №59752 - sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyihani ishlab chiqish bosqichidagi loyihaviy xujjatlar.

2.2. Arxitektura va qurilish yechimlari.

2.3. Tarmoq muhandisligi.

2.4. Smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish maydoning xususiyatlari.

- Qurilish va iqlim zonasi - II;
- Tashqi havoning taxminiy qishki harorati - 16 g S;
- Shamolning standart bosimi - 0,38 kPa;
- Standart qor yuki - 0,50 kPa;
- Tuproq sharoitini hisobga olgan holda qurilish maydonining seysmikligi - 7 ball.

3.2. Loyihaning "Arxitekturaviy va Konstruktiv yechimlari" qismi.

200-qatnovli oilaviy poliklinika binosi.

Arxitekturaviy yechimlar.

Qurilishi rejalashtirilayotgan 200-qatnovli oilaviy poliklinika binosi 3 ta blokdan iborat. Bloklar bir-biri bilan seysmik choklar bilan ajratilgan.

Blok №1. Bino rejada to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib oq bo'ylab o'lchamlari 16,2x40,2m ni tashkil qiladi. Bino 3 qavatli bo'lib xonalar balandligi poldan shiftgacha h=3,3m ni tashkil qiladi.

Blok №2. Bino rejada to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib oq bo'ylab o'lchamlari 2,7x9,0m ni tashkil qiladi. Bino 1 qavatli bo'lib xonalar balandligi poldan shiftgacha h=3,0m ni tashkil qiladi.

Blok №3. Bino rejada to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib oq bo'ylab o'lchamlari 15,0x27,0m ni tashkil qiladi. Bino 1 qavatli bo'lib xonalar balandligi poldan shiftgacha h=3,0m ni tashkil qiladi.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar:

- Qurilish maydoni - 1209,2m²;
- Umumiy maydon - 2124,2m²;
- Foydali maydon - 1979,8m²;
- Qurilish hajmi - 10253,4m³.

Konstruktiv yechimlar:

- Poydevor - ustunli va tasmali quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B20. Poydevorlar setkalar yordamida kuchaytirilgan.
- Ustunlar - o'lchami 400x400mm bo'lgan monolit temir-betondan. Beton sinfi B20. Ustunlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
- To'sinlar - o'lchami 400x400mm bo'lgan monolit temir-betondan. Beton sinfi B25. To'sinlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
- Tashqi devorlar - qalinligi 380mm bo'lib M75 markali pishiq g'ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Devorlar har 700mm oraliqda gorizontaliga setkalar yordamida kuchaytirilgan. Devorlar tashqi tarafdin issiq saqllovchi material (bazalt tolali) bilan qoplangan.
- Pardevorlar (peregorodka) - qalinligi 120mm bo'lib M75 markali pishiq g'ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Pardevorlar gorizontaliga setkalar yordamida kuchaytirilgan.
- Sarrovlar (peremichka) - quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. Sarrovlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
- Zinapoya - quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B20. Zinapoyalar armaturalar yordamida

kuchaytirilgan.

- Tomyopma va orayopma - g'ovakli yig'ma temir beton plitalar.
- Tom - chordoqli. Konvert shaklda qalinligi 0,5mm bo'lgan polimer qoplamali prof.listlar bilan yopilgan.

3.3. **Energiya samaradorligi va muqobil energiyadan foydalanish.**

Loyihada energiya samaradorligi va muqobil energiyadan foydalanish bo'yicha quyidagi ishlar ko'zda tutilgan:

- Bino fasadi issiq saqlovchi material bilan qoplangan;
- Tomning chordoq qismida issiq saqlovchi material qo'llanilgan;
- 1-qavat polida issiq saqlovchi material qo'llanilgan;
- Deraza romlarida ikki qavatli steklopaket qurilmasi ko'zda tutilgan;
- Bino tomida quyosh panellari va quyosh nuri yordamida suv isitish moslamalarini o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. **Loyihaning "Elektr ta'minoti" qismi.**

200 qatnovli oilaviy poliklinika:

Tarqatuvchi sifatida VRU1-21-10UXL markali ujit urnatish kuzda tutilgan. Ximoya aparatlari uchun VA63 va AD12 avtomat uzgichlar tanlangan. Tarqatuvchi tarmoklar uchun VVGng-0,66 kV markali kabellar ishlatilgan. Elektr yoritish uchun svetodiodli va svetodiod lampali yoritgichlar kullanilgan. Binoning tom qismiga quvvati 550 Vt bo'lgan jami 26 ta quyosh panellarini o'rnatish ko'zda tutilgan. Inventor tipi "tarmoqqa ulanadigan" quvvati 15 kVt bo'lgan invertor o'rnatilgan.

Tashqi 0.4 kV elektr tarmoqlari.

Tashqi 0.4 kV elektr tarmog'i obyekt hududidagi mavjud bo'lgan 2GKTP (transformator)ga ulanish ko'zda tutilgan. Tashqi elektr tarmoqlari AVVG-1kV markali kabellarni yer ostiga yotqizib bajarilgan. Tashqi yoritish uchun quyosh panelli GLIL 80W yoritgichlar o'rnatish ko'zda tutilgan.

4.2. **Loyihaning "Suv ta'minoti va oqova suv tarmog'i" qismi.**

200 qatnovli oilaviy poliklinika:

Maishiy ichimlik suvi markazlashtirilgan holda tashqi suv ta'minoti tarmog'idan ta'minlanadi. Binoga suv bitta kirish orqali beriladi. B1-1 kirish qismida maishiy va ichimlik suvi va yong'inga qarshi ehtiyojlar uchun bosimni oshirish uchun podvalga nasos agregatlari o'rnatilgan. Yong'in va ichimlik suvi ta'minoti tizimining kombinatsiyalangan sxemasi qabul qilindi. Loyihada har bir komplektda 2 ta nasos (1 ish, 1 ta yordamchi) bo'lgan 1 komplektli bosim kuchaytirgich qurilmalari ko'zda tutilgan. Suv sanitariya-texnik vositalarga beriladi. Sovuq suvni hisobga olish uchun binoga suv ta'minoti kirish joyida DN40mm elektron hisoblagichga ega aylanma liniyasi bo'lgan suv o'lchash moslamasi o'rnatilgan bo'lib, ma'lumotlarni masofadan uzatish imkoniyati mavjud. Suv ta'minoti tizimi GOST 10704-94 bo'yicha Ø57x3,5 mm elektr payvandlangan po'lat quvurlardan va Ø50-Ø20 mm polipropilen quvurlardan mo'ljallangan. Binoning issiq suv ta'minoti xona va hammomlarga o'rnatilgan elektr suv isitgichlari hamda binoning tomiga o'rnatilgan 6 dona V=300L quyoshli suv isitgichlaridan ta'minlanadi. T3s quyosh suv isitgichlaridan isitiladigan suv elektr suv isitgichlariga beriladi, u erda yana isitiladi. Issiq suv quvuri Ø32-Ø20 mm polipropilen quvurlardan mo'ljallangan. Ichki kanalizatsiya tarmog'i tarmoq tortishish kuchi bilan ta'minlanishi uchun mo'ljallangan. Polivinilxlorid kanalizatsiya quvurlari Ø50, 100mm GOST 22689.3-89 dan tayyorlangan.

Tashqi suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari:

Ushbu loyiha 01-876 11/10/2023-sonli texnik shartlarga muvofiq "Oqtosh ota MFY Yangi O'zbekiston massivi" loyihasi bo'yicha yangi tarmoq qurilishiga kommunal suv ta'minoti tizimini ulashni nazarda tutadi. Ø160 suv xo'jaligi balansida joylashgan. Maishiy ichimlik-yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimi - B1 er yuzasidan 1,0-1,2 metr chuqurlikda quduqlarda o'chirish vanalarini o'rnatish bilan yotqizilgan. Ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlari GOST 18599-2001 bo'yicha PE63 SDR 17,6 polietilen bosimli quvurlardan tayyorlanadi.

4.3. Loyihaning "Isitish va shamollatish tizimlari" qismi.

Isitish.

Obyektiga loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun loyiha topshirig'ining 18-bandiga muvofiq hududdagi markazlashtirilgan issiqlik qozonhonasiga ulanish ko'zda tutilgan. Binoga talab etilgan issiqlik quvvati 122.115kVt isitish tizimi uchun, 16.455kVt shamollatish tizimi uchun. Isitish tizimi ikki quvurli vertikal va gorizontal bo'lib pol ustiga yotqizilgan. Isitish tizimining quvurlari va stoyaklari PPRC Ø20, Ø25, Ø32, Ø40, Ø50, Ø63, Ø75mm diametrliligi va GOST 10704-91 turdagi Ø159x5, Ø89x4, Ø76x3 diametrliligi po'lat quvurlardan loyihalangan.

Shamollatish.

Bino honalarida devor tirqishlari eshik va derazalar orqali tabiiy shamollatish va markaziy konditsioner 520m³/soat, markaziy konditsioner 740m³/soat, WNK 315/1, WNK 160/1, osli ventilyator 100m³/soat, VKPFI 4E, turdagi ventilyator va havo kirituvchi jihozlari orqali mexanik shamollatish tizimi ko'zda tutilgan.

4.4. Yong'inga qarshi chora-tadbirlar.

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi – 2.

Binoning funksional yong'in xavfi sinfi – F3.4

Loyihada quyidagilar ko'zda tutilgan:

- Binoda yong'in sodir bo'lganda xabar berish qurilmasi (pojarnaya signalizatsiya) ko'zda tutilgan;
- Barcha yog'och konstruksiyalar antiseptik vositalar bilan singdirilgan va yong'inga qarshi vositalar bilan ishlov berilgan;
- Evakuatsiya yo'llarida devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallardan ishlangan;
- Tashqi o't o'chirish yong'in xavfsizligi gidrantlaridan amalga oshiriladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Jizzax viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi qoshidagi Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 13.11.2023-yildagi №102582487-sonli kengash xulosasi.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Jizzax viloyati filiali tomonidan 26.09.2023-yilda berilgan 390-E sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3. Buyurtmachi obyekt loyiha-smeta xujjatlarini tasdiqlashdan oldin barcha mutasaddi va tegishli tashkilotlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Obyektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar (2022 yil II-III-chorak), internet saytlaridan olingan ma'lumotlar va amaldagi (bozor

sharoitlariga ko'ra) narxlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

Smeta xujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

a) Ba'zi bir qurilish materiallari va uskuna (jixozlar) narxi baland qabul qilinganligiga, ba'zi bir ish turlari uchun tanlangan smeta me'yorlari xato tanlanganligiga, ishchi chizmalarni spesifikatsiyasi bilan birga to'liq bo'lishligiga, ish hajmlari hisobi (VOR) taqdim qilinishiga, internet saytlaridan olingan narxlar asoslari tizimga kiritilishiga, zahira dizel elektrostansiyasi ayvoni chizmalari taqdim qilinishiga va narxlar shakllanishi asoslanishiga e'tirozlar bildirildi (smeta xujjatlariga berilgan e'tirozga qaralsin).

b) Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati QQS bilan buyurtmachining boshqa xarajatlari siz - **10 504 286,5833** ming so'm taqdim etilgan.

Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ya'ni qurilish materiallari va uskuna (jixozlar) narxlari to'g'rilanishi, ba'zi bir ish turida ish hajmi o'zgarishi, dizel podstansiyasi obektning elektr toifasi va texnik shart asosida obektdan chiqarilishi natijasida QQS bilan - **919 307,976** ming so'mga kamaytirildi.

6.3. Lokal ekspert xulosa natijalarini xisobga olgan holda "**Jizzax viloyati Sh.Rashdov tumani "Oqtoshota" MFY hududida "Yangi O'zbekiston" massivida 200 qatnovli OP qurish**" ishchi loyihasi smeta kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va QQS bilan umumiy miqdorda - **9 584 978,607** ming so'm tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

- qurilish montaj ishlari xarajatlari - **7 421 811,697** ming so'm;

- uskuna (jixoz)lar narxi transport sarf-harajatlari bilan birgalikda - **1 108 906,617** ming so'm;

- qurilish vaqtida qurilish obektini sug'urtalashga sarflangan xarajatlar - **27 298,299** ming so'm;

- qo'shimcha qiymat solig'i 12% - **1 026 961,994** ming so'm.

- ishchi quruvchilarning o'rtacha bir soatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan chiqarilayotgan 2022-yil II chorak katalog asosida **16 539,65 x 1,12 = 18 524,408** so'm ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

- Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan ish haqi bo'yicha xarajatlarni aniqlashda, qabul qilingan 1 kishi/soat **18 524,408** so'm (ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12% bilan) va pudratchining "boshqa xarajatlari" bo'yicha xarajatlarni aniqlashda qabul qilingan 18,58% ko'rsatkich tavsiyaviydir, pudratchi bilan xarajatlarni hisob-kitob qilishda ushbu ko'rsatkichlar ShNQ4.01.16-09 bilan tartibga solingan holda olib borilishi tavsiya etiladi).

(Ta'kidlash joizki:

1. Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan asosiy mashina - mexanizmlarni ekspluatatsiya qilishning 1 mash/soat narxlari, asosiy qurilish materiallari va uskuna (jixoz) larni xarid qilish tartibi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi va asoslovchi xujjatlarga tayanilishi lozim.

Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

- pudratchi boshqa xarajatlarning aniq sarfi;

- "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o'z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab

chiqaruvchilardan (etkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;

- ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o'tgan 12 oydagi o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi).

- HIDRO MRS-S3 CR 3-10 50/60HZ RUS Q=6,548m³/Chas, Q_{max}=13,5m³/Chas, Q_{max}=65,6m, N=2,25kvt 3x400v rusumli 1-komp nasos narxi internet saytlari orqali aniqlangan (842231x140,16:1,12=105399194 so'm). Tender savdolariga qo'yilishidan oldin buyurtmachi tashkilot ushbu narx shakllanishida internet saytlari bo'yicha GRUNDFOS (Grundfos) kompaniyasiga tegishli ma'lumotga tayanilganligiga e'tibor qilishi lozim va qayta ko'rib chiqqan holda eng maqbul narxni qabul qilishi tavsiya etiladi.

6.4. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi .

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4-bandi). Tanlov savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etilgan dastlabki baxolarni buyurtmachi qabul qiladi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir".

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalari va takliflarini inobatga olgan holda "**Jizzax viloyati Sh.Rashdov tumani "Oqtoshota" MFY hududida "Yangi O'zbekiston" massivida 200 qatnovli OP qurish**" loyiha-smeta xujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: DJURAEV ANVAR LAPASOVICH

Ishtirokchi ekspertlar:

Abduramanov Nazim Sheyxmambetovich

AYUBOV RUSTAM XAMITOVICH

TURAEV SHOHRUX ILXOMOVICH

UBAYDULLAYEV NIZOMJON NE'MATULLA O'G'LI

AMONOV JAVOXIR MUXAMMADJON O'G'LI

SHAKUROV RAFAEL FAXRAZEYEVICH

Kulmatov Eshmirza Turgunboyevich